

OLIV TA'LIM TIZIMIDA FUQAROLIK VA FAOL FUQAROLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN-MOHİYATI

Muratov Xabibulla Abduqodirovich
Qarshi davlat universitet o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarning fuqarolik faollik ko'nikmalarini shakllantirishda hamda ularning ilmiy salohiyatini oshirishda mavjud tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hamda pedagogik-psixologik muammolarni jahon va mahalliy tajribalardan kelib chiqib, bugungi holatini tahlil qilish orqali ilmiy-nazariy ma'lumotlarni amalda qo'llashni takomillashtirish bo'yicha hulosalar va takliflar ishlab chiqilgan.

Калум сўзлар: Fuqaro, faol, ta'lim, pedagogik-psixologik, zamon, tizim, ijtimoiy, siyosiy .

СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЙ ГРАЖДАНСТВЕННОСТИ И АКТИВНОЙ ГРАЖДАНСТВЕННОСТИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Муратов Хабибулла Абдукадирович
Преподаватель Каршинского государственного университета

Аннотация: В данной научной статье в научно-теоретическом плане анализируются исторические, общественно-политические и педагогико-психологические проблемы формирования навыков гражданской активности студентов в системе высшего образования и развития их научного потенциала, на основе глобальный и местный опыт, разработаны выводы и предложения по совершенствованию практического применения данных.

Ключевые слова: Гражданин, активист, образование, педагогико-психологический, время, система, социальный, политический.

CONCEPTUAL CITIZENSHIP AND ACTIVE CITIZENSHIP IN THE SYSTEM OF HIGHER EDUCATION

Muratov Khabibulla Abdukodirovich
Lecturer at Karshi State University, Kashkadarya, Uzbekistan

Abstract: This scientific article analyzes historical, socio-political and pedagogical-psychological problems of developing students' civic engagement skills in the higher education system and developing their scientific potential, based on global and local experience, and develops conclusions and proposals for improvement practical application of data.

Keywords: Citizen, activist, education, pedagogical and psychological, time, system, social, political.

Fuqarolik, shaxsni o'zi istiqomat qiluvchi makonga taalluqligini anglatganligi sanalib, fuqarolik faolligi uni subyektivlik darajasini ifodalovchi sifatning ifodalanganligini ko'rsatadi. Bu sifatlar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga bo'lgan munosabatni individuallashtirishning bir ko'rinishi tarzida mujassamlashib, ichki va tashqi motivlarning ta'siri asosida inson o'z taqdirining fundamental realligi tarzida ifodalaydi. Faol fuqaro bo'lish, bu guruh yoki jamoada, jamiyatda aniq g'oyaviy tamoyillar asosida o'zining harakatlarini boshqalarning hayot-faoliyatini farovonligini ta'minlashda "mas'ul" ekanligini ifodalashda namoyon bo'ladi. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida fuqarolik senzi tushunchasi ham kiritilganki, unga ko'ra saylanadigan va salovchi o'sha davlat fuqarosi bo'lishi belgilanadi [12;494]. Fuqarolik senzini, xavfsizlik pedagogikasi yoki inert fuqarolik tarzida idrok etish shart emas [16;32-46, 11-18]. Shu tariqa, fuqarolik mas'uliyati ta'minlanishi ko'rsatilgan. "Mas'ullik" shaxs sifatleri, xulq-atvor motivlari, dunyoqarash, huquqiy, ma'naviy va ijtimoiy himoyani amalga oshirishni ifoda etadi. Faol fuqarolik tushunchasini talqin etishda obyektiv xarakterdagi muammolar qatoriga:

Fuqaro, grajdanin, faol va aktiv kabi tushunchalarni genezisidagi tafovutlarning ma'naviy qamroviga e'tibor qaratmaslik;

faol fuqarolikni shakllantirishga OAVning konsepsiyaga ega emasligi;

faollik klassifikatsiyasi bo'yicha mezonlarning belgilanmaganligi;

faollik va daxldorlik, muammoni ko'rsatish va mas'uliyat orasidagi umumiy va ayri jihatlarning belgilanmaganligi;

ta'lim amaliyoti uchun faol fuqarolikni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarining ishlab chiqilmaganligini ko'rsatib o'tish mumkin.

Faol fuqarolikning ifodalanish darajalarini belgilash uchun, birinchi navbatdan uni temperamentning kategoriyasi hisoblanishini, ikkinchi navbatda, faollikni ifoda etishda motivlarning ta'sir darajasini belgilash lozim bo'ladi. Inson kamolotini ta'minlash nuqtai nazari asosida fuqarolik faolligini shakllantirish va rivojlantirishda (rivojlanishning davriy bosqichlari D.B.Elkonin va L.S.Vigotskiylarning tavsifi asosida bajarildi [1;6]) insonni

tug'ilgan paytidan to yetuklik davrigacha bo'lgan:

- tug'ilishdan to ikki yoshgacha bo'lgan rivojlanish davri;
- ikki yoshdan to olti yoshgacha bo'lgan rivojlanish davri;
- olti yoshdan o'n bir yoshgacha bo'lgan rivojlanish davri;
- o'n bir yoshdan to o'n to'qqiz yoshgacha bo'lgan rivojlanish davri;
- yigirma yoshdan to qirq yoshgacha bo'lgan rivojlanish davri;
- qirq yoshdan to oltmish yoshgacha bo'lgan rivojlanish davri;

oltmish yoshdan to yetmish besh va undan keyingi yoshgacha bo'lgan bo'lgan rivojlanish davri oraliq'idagi vaqt davomida tashqi va ichki omillarning (motivlarning) ta'siri asosida turli dinamik ko'rsatkichlarni fuqarolik faolligini shakllantirida ishtirok etuvchi kompetensiyalar tarzida ko'rib chiqish lozim bo'ladi.

“O'zbekiston yoshlari – 2030” konsepsiyasida ham vazifa sifatida yoshlar faolligini, shu jumladan, fuqarolik faolligini ta'minlash alohida o'rin tutib[2], ularni kompetentligi, ya'ni layoqatmandligini shakllantirish alohida ko'rsatib o'tilgan. Agarda, har qanday faollik turining birlamchi manbasi ehtiyoj va motivlar hisoblanishini nazarda tutsak. Ehtiyoj bu, insonni me'yoriy darajada hayot va faoliyat yuritishini ta'minlashda yetishmayotgan sharoit (predmet)larga oid paydo bo'lgan istaklarini A.Maslou uni beshta pog'onasini tavsiflab berganki [3;431], bizning tadqiqotimiz uchun xavfsizlikka, ijtimoiy aloqalarga, hurmatga sazovor bo'lish va dolzarblashtirish, ya'ni to'rtta ehtiyoj fuqarolik faolligini ifoda etishda ahamiyatli sanaladi. Bunda, inson ongida vujudga kelgan ehtiyojlarini qondirish uchun faoliyatga undovchi motiv individni jumbushga keltirishini inobatga olish lozim bo'ladi [4;392,9-13]. Agarda, Djoy Pol Gilfordning motivatsiyaviy omillar ro'yxatiga e'tibor qaratsak, “umumiy faollik” omili uchinchi pog'onadan joy olganligini kuzatish mumkin [5;734-b]. Agarda, Dj.P.Gilford ta'limoti bo'yicha, umumiy faollik inson uchun uchinchi pog'onada tursa, fuqarolik faollik boshqa faollik turidan madaniy-ijtimoiy mazmunga ega bo'lishini nazarda tutsak, yoshlarda fuqarolik faolligini shakllantirish uchun substansiyaviy asos mavjud. Inson, fuqarolik faolliqi tufayli oliy maqsadi va yuksak orzularini real dunyoda obyektivlashtirish uchun, ijtimoiy institutlar, madaniy institutlar, moliyaviy institutlar, siyosiy institutlar bilan aloqaga kirishadi. Fuqarolik faolliqi yaqqol ifodalangan subyekt esa, boshqalarning ham manfaatlarini himoya qilish uchun ongli harakatlarni amalga oshiradi.

Faollik, ijtimoiy va ilmiy bilim, huquqiy me'yorlar va majburiyatning mujassamlashuvi natijasida shaxsda ifodalanadi. Bu tarkiblarning sifati, ya'ni bilimlarni qay darajada o'zlashtirilganligi, ularning odatga aylantirilganligi esa, faollikni madaniy-ijtimoiy ahamiyatga egaligi bo'yicha namoyon etish darajasini belgilaydi. Yoshlarda faol fuqarolikni shakllantirishda, uni ijtimoiy-madaniy ahamiyatlilikiga alohida e'tibor qaratib:

- yorqin ifodalangan faollik;
- shunchaki ifodalangan faollik;
- ifodalanmagan (inert holatdagi) faollik kabilarga ajratish mumkin bo'ladi.

Faol fuqarolik, E.Frommning ta'biri bilan aytganda, subyekt tomonidan anglangan, ya'ni ichki va tashqi motivlarning ta'siri asosida maqsad shakllangan, harakatlar algoritmi belgilangan bo'lishi shart. Erkinlikka erishish haqida o'z munosabatini bildirib, E.Fromm tanlash, qaror chiqarish va qabul qilish erkinligi hamda ongli tarzda harakatlarni amalga oshirishni, erkinlikni ikki jihati deb hisoblaydi. Uningcha, anglash uchun:

- nima yaxshiyu, nima yomon?;
- vujudga kelgan vaziyatda maqsadga erishish uchun harakat turi;
- anglanmagan istaklar;
- vujudga kelgan vaziyatdagi real imkoniyatlar;
- qaror oqibatida vujudga keladigan holat;
- kutilayotgan salbiy natijalarga qaramasdan jarayonni to'liq anglanmaganligi.

Faol fuqarolik pozitsiyasini egallash va namoyon etishda, E.Fromm tomonidan ko'rsatib o'tilgan anglash uchun zarur sanalgan asosiy omillar ahamiyatli sanaladi. Chunki:

- a) yorqin ifodalangan faollikda, boshqalarning manfaat va farovon hayot-faoliyatini himoya qilish ifodalangan;
- b) shunchaki ifodalangan faollikda, subyekt so'zini dolzarblashtirib, boshqalar uchun ahamiyatli ekanligini ko'rsatish uchun harakatlarni amalga oshirgan;
- v) ifodalanmagan (inert holatdagi) faollikda esa, namoyon etish uchun turtki (motivlashtiruvchi omil) yetishmasligi, vaziyat vujudga kelmaganligini ko'rish mumkin.

Faollikni, jumladan, fuqarolik faolligini mazkur mezonlar asosida baholash, yoshlarning fuqarolik faollik darajasini individual tarzda oshirishni ta'minlab, didaktik vazifalarni tatbiq etish uchun imkon beradi. Didaktik vazifalar deganda, o'quv vositalarining tashqi ifodalanishini, ta'lim va tarbiya jarayonida ta'limiy masalalarni yechish uchun qo'llaniladigan majmuani tushunish lozim [8;32-36].

- Faol fuqarolikni shakllantirishda subyektiv murakkablik sifatida:
- shaxsiy tashabbusning yetishmaligi;
- rivojlanishga intilmaslik;

- faol fuqarolikni interiorizatsiyasining murakkabligi;
- negativ ma'lumotlarga ega bo'lish;
- faol fuqarolik harakatini noto'g'ri talqin etilishi;
- faol fuqarolik harakatini ijtimoiy ma'qullanishini pastligi;
- yoshlar qadriyatlarining dominantligi shaxsiy hayot qadriyati bilan sintezlashgani va boshqalar.

Yoshlarni fuqarolik faolligini oshirishda, so'ngisining o'rnini muhim sanaladi. A.A.Bloxina bu muammoni alohida o'rganib, yoshlar uchun sog'liq, baxt, oilaviy hayot tinchligi kabilar shaxsiy hayot qadriyatlarini sintezlashuvi tarzida ifodalanganligini aniqlagan [9;1-7-b]. Tadqiqotda qatnashganlarning asosiy qismi (60%) shu tarzda subyektiv munosabat bildirishgan. Ilmiy-pedagogik manbalarning tahlili hamda tadqiqotimizning vazifalaridan kelib chiqqan holda faol fuqarolikni shakllantirish modelini (1.2.1-jadval) taklif qilishdan oldin, ilmiy bilishda muhim o'rin tutgan model, modellashtirish va pedagogik model haqida to'xtalib o'tamiz. Model (fr. modèle ot lat. Modulus – me'yor, o'xshash, namuna), ya'ni pedagogik jarayon yoki vaziyatga doir muhim ma'lumotlarni ifodalovchi tizim[10;119]. Modellashtirish esa, pedagogik jarayoni yoki pedagogik vaziyatni chizmasi ko'rinishda aniq ifodalab berish jarayoni sanaladi [11;52]. Pedagogik faoliyatda, modellarni ishlab chiqish, asosan, quyidagi ipostas (yun. – joylashtirish, joy-joyiga qo'yish, belgilash) tarzida kechadi:

- modelni ishlab chiqish;
- modelni takomillashtirish;

modelni tatbiq etish (amaliyotga joriy etish). Pedagogika fanida modellarni tayyorlashda bir qator talablar mavjud bo'lib, ingrent (o'zgarmaydigan, doimiy), modelning soddaligi (tatbiq etishda muammo tug'dirmasligi), adekvatligi (aynan mosligi) kabilar shular jumlasidandir. Tadqiqotimizda, pedagogik tadqiqotlar juda ko'p qo'llaniladigan strukturaviy-funksional model tarzidan foydalanib, modellashtirish jarayonini samarali kechishini ta'minlash uchun faol fuqarolikni shakllantirish muhim sanalgan konseptlarni (yun. conceptus-tushunchalarning mazmun-mohiyati) belgilash lozim:

- a) bazaviy tushunchalarni belgilash;
- b) bilim, qadriyatlar, sifat, harakat va pozitsiyani belgilash, ya'ni faol fuqarolikning asosiy tarkiblarini belgilash;
- v) didaktik jarayon va vositalarni ajratish;
- g) natija sifatida namoyon bo'ladigan – faol fuqarolik kompetensiyasining asosiy komponentlarini belgilash.

1.2.1-jadval.

Faol fuqarolikni shakllantirish modeli

Asosiy tushunchalar	Fuqarolik faolligining asosiy tarkiblari				
	bilim	qadriyatlar	sifat	harakat	pozitsiya
Fuqarolik faolligini shakllantirish vositalari					
Jarayon	Ta'lim-tarbiya jarayoni				
Didaktik vositalar	1. "Faol fuqarolikni shakllantirish" mualliflik dasturini o'quv jarayoniga tatbiq etish. 2. Fuqarolik faolligini ta'minlash sohasidagi hamkorlikdagi mualliflik ilmiy va loyihaviy ishlar. 3. Ta'lim jarayoniga faol fuqarolik qadriyatlari va xulq-atvor namunalarini shakllantiruvchi modullarni joriy etish.	1. Faol fuqarolik pozitsiyasining ahamiyatini targ'ib etish uchun majmuaviy ishlar. 2. Mavzuviy seminar-treninglarni tashkil etish. 3. Talabalar jamoasini fuqarolik faollikni ta'minlash kontekstida birlashtirish (ijodiy kechalar, davlat va jamoat arboblari bilan uchrashuvlar va b.). 4. Fuqarolik faollikni targ'ib etuvchi volonterlik harakatlarini tashkil etish. 5. Ibratli, namunali xulq-atvorni ijtimoiy-madaniy loyihalashtirish.			
Natija					
Faol fuqarolik kompetensiyalari					

Talaba-yoshlarda faol fuqarolik kompetensiyalarini belgilashda, ehtiyoj va motivlar ularni harakatga keltiruvchi asosiy kuch sanaladi. Ta'lim jarayoni va talaba-yoshlar faoliyatini kamol topishini ta'minlash nuqtai nazar bilan boshqarishda, ehtiyoj va motiv ko'rstakichi boshqaruv usuli va resurlarni belgilash imkonini beradi. Ammo ta'lim muhitining xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'sib borishi, bu masalaga

kompetensiyaviy munosabatda bo'lishni taqozo etadi [12;288]. Turli, destruktiv guruhlar ta'limiy manba va faoliyatni "qo'llash" kabi psevd (yunon. pseudos—(yolg'on)—o'zlashma qo'shma so'zlarning birinchi qismi bo'lib, ikkinchi qismning yolg'on, soxta ekanligini anglatadi) maqsadlari asosida separatizm, millatchilik, radikal namoyishlar kabi harakatlarni targ'ibot qilishlari kuzatiladi.

Faol fuqarolikning muhim komponenti hisoblanmish bilim, nafaqat maishiy bilim, balki hudud va mintaqaning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir, millat va uning madaniyatiga oid, milliy va umuminsoniy yoki kasbiy qadriyatlar hamda diniy va dunyoviy bilimlarni o'zlashtirishni taqozo etadi. Polshada bu masala xavfsizlik pedagogikasi doirasida o'rganib kelinayotganligini nazarda tutsak [13;11-18], bu o'z navbatida, "Faol fuqarolikni shakllantirish" mualliflik dasturini o'quv jarayoniga tatbiq etishni taqozo etadi (1-ilova). F.Nabiyev, O.Otamirzayev va G'.N.Pirnazarovlarning tadqiqot natijalarining xulosasi ham bu fikrimizga asos bo'la oladi [14;41-47]. Mazkur jarayon o'z navbatida, yoshlarimizga ta'lim berish amaliyotida faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda, ularda siyosiy, madaniy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik kabi kompetensiyalarni ham shakllantirishga e'tibor qaratishni taqozo etadi. Oliy ta'lim tizimida axborot yoki tayyor bilim beradigan ta'limiy manbalarni yaratishdan ko'ra, axborotni bilim shakliga keltirishga yo'naltirilgan manbalarni milliy manfaatlarni himoya qilish nazari asosida yaratish lozim bo'ladi. Shunda, yoshlarimiz fuqarolik mas'uliyati va jamiyat oldidagi burchining mazmunini anglay boshlaydi. Aynan anglash (ichki va tashqi dunyoda kechayotgan holat/jarayonlarni ko'ra bilish) jarayonida yoshlarda kechayotgan demokratik jarayonlarga nisbatan fuqarolik munosabati shakllanadiki, uni quyidagicha ko'rsatib o'tish mumkin: "Men – fuqaro – Dunyo manzarasi – Men yashaydigan mamlakat (Men-daxldorlik) – Ma'lumotlar oqimi (Men – axborot iste'molchisi) – Saralash jarayoni (Men – tahliliy faoiyat) – Aloqadorlikni belgilash (Men – strategiyani ta'minlovchi) – Baholash (Men – individual xulq egasi) – Harakat strategiyasini tanlash (Men – bunyodkor) = Faol fuqarolik munosabati (Jamiyat hayotini takomillashtirishga intilish)". Munosabat, ehtiyojlarning qondirilganlik darajasi va motivlarning ta'siri asosida shakllanadi. Bunda, A.Banduraning "O'z – o'zini samaradorligi" (self – efficacy) mexanizmi bo'yicha, subyekt o'z qobiliyatlari, iqtidori va e'tiqodiga tayanib, harakatni amalga oshiradi [15;3]. Bizning misolimizda, harakat – faol fuqarolikni ko'rsatishda ifodalanadi. A.Banduraning g'oyasiga ko'ra, "Men"ni ikkilamchilik tabiati – subyekt va obyekt tarzida xulqni namoyon etishda o'z aksini topadi. D.A.Leontyevning ko'rsatishicha, A.Banduraning ta'limotida inson xulqi nafaqat tashqi omillarning ta'siri asosida, balki individning o'zi tomonidan determinlashgan (belgilangan) tarzda ko'rinib [16;49-59], faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish mazkur ko'rsatma nazariy-metodologik ma'no kasb etadi.

Fuqarolik munosabati, bevosita faollikning mazmundorligini ta'minlaydiki, V.N.Myasishev munosabat shakllanishining ijtimoiy-psixologik jihatlarni o'rganib, qiziqish va havas ta'sirida o'ziga xos holat vujudga kelishini ko'rsatib o'tgan. Ya'ni, fuqarolik munosabatining tarkibida bu omillarning mavjudligi motivlarning shakllanishiga, vujudga kelgan talabni, anglangan ehtiyoj darajasiga chiqishi uchun ishtirok etadi. Shuning uchun Avstraliya ta'lim muassasalarida siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va madaniy axborot va bilimlar fuqarolikni shakllantirish uchun o'tiladi. Bu holat, ta'lim oluvchilarda jamiyat, inson, milliy manfaat, demokratik tizim, siyosiy institut tarzidagi murakkab aloqadorlikni ta'minlashda qatnashish madaniyatini shakllantiradi [17;516-539]. E.P.Strelnikova katta sinf o'quvchilarida fuqarolik pozitsiyasini o'rganib, ular tomonidan fuqarolik pozitsiyasini ifoda etish jamiyat va davlatga zid bo'lgan har qanday salbiy ko'rinishdagi ifodalarga qarshi turishda, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishda shaxsiy sifatlar ko'rinishida ifodalanishini ko'rsatib o'tgan. Bizningcha, salbiy ko'rinishlarga qarshi turish ko'proq g'oyaviylik va axborot-ruhiy tahdidlardan himoya tarzida namoyon bo'ladigan individual-psixologik himoya tarzi sanaladiki, muallif uni alohida inobatga olmagan. Faol fuqarolik pozitsiyali shaxs davlatga, huquqqa, jamiyatga, o'ziga va boshqalarga bo'lgan munosabatlar majmuasi sifatida integrativ ko'rinishdagi ongli harakatlarni namoyon etadiki, turli predmetlar doirasida olingan ma'lumotlar va o'zlashtirilgan bilimlarning "aralashma"si asosida vujudga kelgan holat deb D.V.Kirilov ko'rsatib o'tgan. Bunda, gumanitar fanlarni o'qitish davomida fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning pedagogik asoslarini empirik o'rganib, hattoki fuqarolik pozitsiyasini integrativ sifat ekanligini belgilab bergan. Integrativlik (ingl. integration – elementlarda ifodalanmagan xususiyatlarni tizimda kuzatilishi) esa, ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlar ongida fanlararo kesimida o'zlashtirilgan bilimlarni o'zaro aralashuvda ifodalanib, uning asosida ongli harakat ifodalanishida ko'rinadi.

Jamiyat hayotining farovonligini ta'minlashda tashabbus ko'rsata oladigan, o'z fuqarolik pozitsiyasini jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish nuqtai nazari bilan bayon etadigan yoshlarni tarbiyalashga ijtimoiy buyurtma ortib bormoqda. Bu murakkab ichki struktura, fuqarolik faollik komponentlarining funksional aloqadorligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, fuqarolik faollikni ifoda etmaganlarni pedagogik diagnostikasini amalga oshirib, aniqlangan muammolarni pedagogik korreksiya qilishni taqozo etadi. Buning uchun birinchi bosqichda (diagnostika bosqichida) fuqarolik faollikning darajalarini aniqlab olish lozim bo'ladi. Agarda faollik samarasiz yoki og'ishli ko'rinishga ega bo'lsa, uning korreksiyasini amalga oshirish maqsadga muvofiqdirki, oliy ta'lim muassasasi psixologi bu vazifani bajara oladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida quyidagilar

psixologik xizmatning asosiy vazifalari etib belgilangan:

ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini samarali va sifatli tashkil etish, shu jumladan, ish faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari samaradorligini oshirish;

o'quvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida to'g'ri kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashish;

turli yosh davrlarida o'quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy taraqqiyotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning oldini olish;

o'quvchilar ta'lim muassasasining ijtimoiy muhitiga moslasha olmasligi holatlarini korreksiyalash, ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

pedagogik jamoalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash, jamoa a'zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish;

iste'dodli va iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o'rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

axborot-psixologik xurujlarning xavfi, Internet jahon axborot tarmog'ining salbiy ta'siri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan «ommaviy madaniyat»ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish;

pedagog xodimlar, o'quvchilar hamda ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko'maklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ta'minlash [18].

Faollikning og'ishli ko'rinishlariga:

ijtimoiy ma'qullangan qarorlardan noroziligini ommaviy tarzda ko'rsatish;

kelishuvni inkor qilish;

ijtimoiy rollarni bajarmaslik;

radikal tarzda norozichilik;

haddan ortiq ijtimoiy rolga kirishib ketish;

o'zini "xaloskor" rovida identifikatsiya qilish va boshqalar [19;74-79].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Oliy ta'lim tizimida yoshlarning fuqarolik faolligini shakllantirishda bazaviy konseptlarni belgilash, ularni shakllantirish uchun didaktik usul va vositalarning maqbulligini inobatga olgan tarzda asoslash, fuqarolik faolligini shakllantirishni tarixiy-pedagogik masala sifatida bayon etish strukturaviy-funksional yondashishni taqozo etadi.

Fuqarolik faollikni ifodalashning tarkibiy qismlari, bevosita inson, jamiyat va davlatga doir bo'lgan bilim, ma'lumotlar hamda shaxsiy omilga bog'liqdir. Pedagogik jihatdan faol fuqarolikni shakllantirish uchun yoshlarga:

jamiyat va uning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy sohasiga (sferasiga) doir bilim;

jamiyat hayotini ta'minlashda siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy institutlarning funksional ishtirokiga doir ma'lumot;

ijtimoiy va siyosiy institutlar tomonidan yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini namoyon etish uchun motivatsion ta'sir ko'rsatish;

faol fuqarolikni egallashga qiziqish va istakni shakllantirish uchun ma'naviy-huquqiy me'yor didaktik asos va vositalarni manzilli belgilash talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent, 2023.

Mirziyoyev Sh.M O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi (2022-yil 20-dekabr). – <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025–yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori

Aliboyev T.CH. Xorijiy tajriba-shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish omili // Xalq ta'limi, 2020. –№ 5. - 115-120 b.

Альбуханова-Славская К.А. Личность в процессе деятельности // Психология личности. – Самара: Бахрах, 1999. – Т. 2. - 48-50 с.

Бабанова И.А. Использование ТРИЗ-педагогика в образовательном процессе. – <http://www.metodolog.ru/01138/01138.html>

Васильева Ю.А., Леонтьев Д.А. Этогенический подход к изучению социальных отклонений // Иностранная психология. 1994. –Т.2. –№2(4). - 83-86 с.

Markova A.K. Talabalarda bilim olishga qiziqishni shakllantirish.-B.17. – http://www.koob.ru/age_psychology/saytning_elektron_resursi

Maslou A. Motivatsiya va shaxsiyat. - M., 1954. http://www.koob.ru/age_psychology/saytning_elektron_resursi

Komusova N.V. «Universitetda o'qish davrida kasb-hunar egallash motivatsiyasini rivojlantirish» - L., 1993 y.

Aseev V.G. Xulq-atvor va shaxsiyatni shakllantirish motivatsiyasi. - M., 1996 yil.

Aseev V.G. Motivatsiya va shaxsiyat muammosi // Shaxs psixologiyasining nazariy muammolari. - M., 1994. - B.122.

Atkinson J.V. Motivatsiyani rivojlantirish nazariyasi. - N., 1996 yil.